


## 86. To'g'ri burchakli parallelepiped qirralari uzunliklari yig'indisi

**Yondosh mavzu:**  
haykaltaroshlik.

To'g'ri burchakli  
parallelepiped, qirra,  
yoq, uch.




1. Turli uzunlikdagi naychalardan to'g'ri burchakli parallelepiped yasaldi. Bunga nechta naycha kerak bo'ldi? Uzunligi bir xil bo'lgan nechta naycha kerak bo'ldi?



To'g'ri burchakli parallelepiped 12 ta qirradan iborat.

To'g'ri burchakli parallelepiped barcha qirralari uzunliklari yig'indisi:

$$L = a \cdot 4 + b \cdot 4 + c \cdot 4$$



Bu yerda  $a$  qirraning uzunligi to'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yi,  $b$  qirraning uzunligi uning eni,  $c$  qirraning uzunligi esa balandligi bo'ladi.



2. Masalalarga doir ifodalar tuzing va ularni hisoblang.
  - a) Simdan to'g'ri burchakli parallelepiped yasash kerak. Uning bo'yi 5 cm, eni 4 cm, balandligi esa 3 cm. Buning uchun qancha sim kerak bo'ladi?
  - b) Parallelepiped yasash uchun uzunligi 12 cm bo'lgan 4 ta naycha, uzunligi undan 20 mm qisqa bo'lgan 8 ta naycha kerak bo'ladi. Bu parallelepiped qirralari uzunliklari yig'indisi nimaga teng bo'ladi?




3. To'g'ri burchakli parallelepipedning balandligi 5 cm. Uning eni balandligidan 2 marta, bo'yi esa 4 marta katta. Bu parallelepiped barcha qirralari uzunliklari yig'indisini toping.

## 86. To'g'ri burchakli parallelepiped qirralari uzunliklari yig'indisi



4. To'g'ri burchakli parallelepipedning barcha qirralari nomini yozing. Agar parallelepipedning bo'yi 8 cm, eni 5 cm, balandligi esa 6 cm bo'lsa, daftaringizda  $CD$ ,  $NF$  va  $DN$  kesmalarni yasang.



5. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$x + 45\,000 + 21\,378 = 98\,206 \qquad y - 38 \cdot 702 = 56\,000$$



6. Bog' atrofidagi devor 45 bo'lakdan iborat bo'lishi kerak. 11 ta bo'lakni yasash uchun 539 kg cho'yan sarflandi. Qolgan bo'laklarni yasash uchun necha kilogramm cho'yan kerak bo'ladi?



7. Quyidagi sonlardan 4 ta turli tenglik tuzing:

$$6\,400, 800, 8; \\ 26\,703, 54\,291, 27\,588.$$



8. Bog'dagi ko'prikcha bir-biriga taqab mixlangan g'o'lalardan yasalgan. Aziza o'sha g'o'lalardan birining ustiga chiqdi. Bu g'o'la chapdan sanaganda 29-g'o'la, o'ngdan sanaganda esa 45-g'o'la ekan. Ko'prikcha nechta g'o'ladan yasalgan?



9. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Bog'larda zinapoyalar shaklida yasalgan sharshara qanday ataladi?

$$10\,800 \cdot (4\,200 : 700) : 100 + 328 \cdot (432 - 371)$$

<b>A</b> 61	<b>D</b> 20 656	<b>K</b> 6	<b>S</b> 64 800
<b>A</b> 20 008	<b>E</b> 28 800	<b>K</b> 648	<b>T</b> 13 128



10. To'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yi 12 cm, eni 10 cm, balandligi esa 2 cm. Uning qirralari uzunliklari yig'indisi nimaga teng?